



BUXORO MA'RIFATPARVAR JADIDLARINING ILM-MA'RIFAT TARAQQIYOTIDAGI ROLINI O'RGANILISHINING MAVJUD HOLATI

Ro'ziqulova Sevara Nortoy qizi

Navoiy Davlat Universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi

2-bosqich magistranti. e-mail: sevararoziqulova01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro ma'rifatparvar jadidlarining ilm-ma'rifat taraqqiyotidagi o'rni kompleks tarzda o'rganiladi. Tadqiqot davomida jadidlar faoliyati uchta yirik tarixiy bosqichga — Sovet davri, Mustaqillikning dastlabki yillari va Zamonaviy bosqich tamoyillari asosida tahlil qilinadi. Har bir bosqichda Buxoro jadidlarining merosi qay tarzda talqin qilingani, qaysi yetuk ma'rifatparvarlar tomonidan o'rganilgani hamda ularning ilmiy izlanishlarida qanday yo'nalishlar ustuvor bo'lgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Sovet davri, Mustaqillik dastlabki yillari, Zamonaviy bosqich, burjua millatchiligi.

Annotation: This article provides a comprehensive study of the role of Bukhara's enlightenment-oriented Jadids in the development of science and education. The research examines the activities of the Jadids across three major historical stages: the Soviet period, the early years of independence, and the contemporary stage. Each period is analyzed in terms of how the legacy of Bukhara Jadids was interpreted, which scholars explored their works, and which research directions were prioritized.

Keywords: Jadidism, Soviet period, early independence, contemporary stage, bourgeois nationalism, Fitrat and Jadidism, Young Bukharans.

Аннотация: В данной статье всесторонне исследуется роль бухарских просветителей-джадидов в развитии науки и образования. В процессе исследования деятельность джадидов рассматривается в рамках трёх крупных исторических этапов: советского периода, первых лет независимости и современного этапа. Для каждого этапа показано, как трактовалось наследие бухарских джадидов, какие исследователи занимались изучением их трудов и какие научные направления считались приоритетными.

Jadidchilik harakati va uning vakillari faoliyati o'zbek xalqining milliy uyg'onish davrida yuzaga kelgan eng muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisalardan biridir. Ularning ilm-ma'rifat, madaniyat va ta'lim sohasidagi xizmatlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu sababli, ma'rifatparvar jadidlarning ilmiy merosini o'rganish masalasi mustaqillik yillarida tarix, falsafa, pedagogika, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik kabi turli fan tarmoqlarida muhim ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Jadidchilik merosini o'rganish tarixining bosqichlari:



Jadidlar faoliyatini o'rganish jarayoni shartli ravishda uch bosqichda kechdi:

1. Sovet davri (1920–1980-yillar) – bu davrda jadidchilik harakati ko'pincha “millatchilik” yoki “burjua millatchiligi” sifatida baholanib, ularning ilmiy va pedagogik merosi siyosiy sabablarga ko'ra e'tibordan chetda qolgan. Faqat ayrim olimlar (masalan, Sadriddin Ayniy, Oybek, Hodi Zarif, Qodiriy asarlari orqali) jadidlar faoliyatini badiiy yo'l bilan ifodalashga jur'at etganlar.

2. Mustaqillikning dastlabki yillari (1991–2016) – O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jadidlar merosini tiklash, ularni millat faxri sifatida qayta baholash davri boshlandi. Shu yillarda A. Qodiriy, F. Fitrat, A. Avloniy, M. Behbudiy, Cho'lpon, Munavvarqori singari ma'rifatparvarlarning asarlari qayta nashr etildi, ularning hayoti va faoliyati haqida tarixiy, adabiy, pedagogik tadqiqotlar yaratildi. Jadidlarning tarixining, ularning jadchilik harakatlarini va bu harakatdan ko'zlangan maqsad va shunga o'xshash ko'plab ma'lumotlar davlatimiz mustaqillikka erishgunga qadar, mustaqillikning dastlabki yillarida va bugungi kunda ham, nafaqat o'sha jadidlarni tug'ilib o'sgan vatanida, balki jahonning nufuzli davlatlarida ham ancha kengroq o'rganilmoqda. Ular tomonidan qoldirilgan merosni o'rganish ko'pchilik ilim ahli uchun ajoyib masuliyatdir.

Jumladan, yozuvchi va jurnalist Nusratillo Naimov Buxoro jadidchiligini o'rgangan ilim egalaridan biridir. Uning qalamiga mansub “Men yashashni istamayman” romani, “Amrning xazinasi”, “Amrning zurriyoti” qissalari, “Buxoro Sharif” tarixiy ochreklar to'plami, “Buxoro jadidlari” tarixiy ocherk va hujjatli qissalari bilan Buxoro qolaversa, yurtimizning kitobxon va gazetaxonlari yaxshigina tanishdirlar. 1998-2000 yillarda “Buxoronoma” gazetasi sahifalarida Nusratillo Naimov Buxoro jadidlari hayoti va siyosiy faoliyati to'g'risida bir qancha ocherklar, hamda XX asrning 20-yillarida Germaniyaga borib tahsil olib qaytgan bir qancha turkistonlik va buxorolik millat farzandlari tarixini o'rganib, qissalar va alohida kitob holatida xalqqa taqdim etdi. Biz o'rgangan “Buxoro jadidlari” tarixiy ocherkida asosan XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Buxoro diyorida tug'ilib millat uchun o'z fidoyiligini ayamagan bir qancha jadidlarning nomlari sanab o'tilib, ularning tajimai holi, jadidchilik harakatiga qanday kelgani, jadidchilik harakatida qanday ishlarni amalga oshirganlari haqida va ular tomonidan yaratilgan asarlar haqida atroflicha to'xtalib o'tilgan.⁵³ Ushbu tarixiy ocherkda Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Abduvohid Burxonov, Atoulla Xo'jayev, Mirzo Nasrullo, Abduqodir Muhitdinov, Musajon Saidjonov, Raxmat Rafiq Abdullabekov, Said Axroriy va Qori Yo'ldosh Po'latovlarni hayoti va jadidchilik maydoniga kirib kelishi, bu harakatda amalga oshirgan harakatlari va ularning ilmiy meroslari haqida qimmatli ma'lumotlar yozilgan. Yana shuningdek ushbu hujjatli qissada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganidan keyin uning rahbari sifatida faoliyat ko'rsatgan Fayzulla Xo'jayevning

⁵³ Nusratillo Naimov “Buxoro jadidlari” Fan nashriyoti. T.: 2000.



rahbarlik harakati natijasida yoshlarni xorijda o'qitish malasalasi o'rta tashlangani va bunda markaz Rossiyadan boshqa hududlarga o'qishga yuborish kerkaligi, o'qishga boradigan yoshlarni yig'ish, (chunki o'sha davrda mahalliy xalq uchun bolalarini boshqa millat, boshqa din vakillariga orasiga yuborish daxshatli tuyulardi) va bu vazifalarni hal qilishda Abdurauf Fitratning yordamlari, to'plangan yoshlarni Germaniyaga olib borib joylashtirish va ularning u yerdagi hayoti, qaytib kelgandan keyingi uqubatlari haqida ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan.

3. Zamonaviy bosqich (2017-yildan hozirgacha) – bu davrda jadidlar faoliyatini ilmiy-nazariy, pedagogik, sotsiokulturologik yondashuvlar asosida o'rganish jarayoni faollashdi. Tadqiqotlarda jadidlarning ta'limiy g'oyalari, milliy pedagogik tafakkurdagi o'rni, yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati tizimli tarzda tahlil qilina boshlandi. Taniqli fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyev ham jadidchilik harakatining eng yorqin namoyodasi hisoblangan Abdurauf Fitratni hayoti, ijodi va faoliyatini chuqur tadqiq etgan olimlardan biridir. Uning ilmiy o'rganishlari natijasida “Abdurauf Fitrat” nomli risolalari 1992-yilda va yangi nashri 2022-yilda kitobxonlar uchun taqdim etildi. Shu yillar oralig'ida, aniqrog'i 2007-yilda olimning “Fitrat va jadidchilik” risolasi ham nashrdan chiqib, kitobxonlar qo'liga yetib borgan edi. 2022-yil nashrdan chiqqan “Abdurauf Fitrat” risolasida asosan Fitratning hayoti, ijodiy faoliyat va ijodiy ishlarning ma'no-mazmunlari haqida atroflicha to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Fitratni Buxoroda savdogar oilasida dunyoga kelgani, uning ilmiy ijod yo'lidan ketishida, qalbida vatanparvarlik hissining jo'sh urishida birinchi uzoqi hisoblangan uning onasi Mustaf bibining xizmati kattaligi va onasining ta'sirida Abduraufda she'r zavqi uyg'ongan va u yoshligidanoq badiiyat dunyosiga yaqinlashgani va uni dastlab mahalla maktabida ta'lim olgani, so'ngra Mirarab madrasasida talim olgani kitobning dastlabki varaqlardan joy olgan misralar edi. Abduraufni taxallusi “Fitrat” bo'lib, bu so'z tug'ma istedod, insonga Alloh bergan yaratuvchanlik qobiliyati ma'nolari beradi. Shuningdek Abduraufni talabalik yillarida “Mijmar” taxallusi bilan ham g'azallar bitganligi haqida zamondoshlari ma'lumot berib o'tganlar. Turkiyadagi o'qishi mobaynida Fitrat Turkiston va Buxorodan borgan talabalarni universitet ta'limiga tayyorlash uchun ma'ruzalar qilgan va “Dori-l-voizin” madrasasida dars ham bergan.⁵⁴ Istanbuldan qaytgach Buxoroda yangi usul maktablari tashkil etish ishlarini boshlab yuborgani, “yosh buxoroliklar” partiyasini tuzib, unga rahbarlik qilgani, uning bu faoliyati amirga yoqmagani natijasida Samarqandga ketib, ijod bilan mashg'ul bo'lgani va shuningdek Samarqandalik yillarida 1917-1918-yillarda Behbudiy tomonidan tashkil etilgan “Hurriyat” gazetasida muharrirlik qilib va 26-85-sonlari ushbu gazetaning Fitratning muharrirligiga tegishli ekanligi, ularda 30 dan ortiq sochma, maqola va she'lari e'lon qilingani va gazeta faoliyati tugatilgach

⁵⁴ Qosimov B. Maslakdoshlar. –T.: Sharq NMAK, 1994.

Fitratni Buxoroga qaytib, islohotlar loyihasini ishlab chiqani haqida ham risolada ma'lumotlar bor.⁵⁵

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuritilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ma'rifatparvar jadidlarning ilm-ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasini o'rganish bugungi kunda kengayib borayotgan ilmiy-pedagogik yo'nalishlardan biridir. Ayni paytda ularning faoliyati tarixshunoslik, pedagogika, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va adabiyotshunoslik singari fanlar kesishmasida tadqiq qilinmoqda. Mavjud holat shundan iboratki, mustaqillikdan keyingi yillarda jadidlar faoliyatiga baholash mezonlari tubdan o'zgardi: sovet mafkurasi hukmron bo'lgan yillardagi biryoqlama, salbiy talqinlar o'rnini tarixiy adolatga asoslangan, ilmiy xolislikka tayanadigan tadqiqotlar egalladi. Fitrat, Behbudiy, Avloniy, Munzim, Hoji Muin kabi ma'rifatparvarlarning ilmiy-pedagogik qarashlari, maktab islohoti borasidagi tashabbuslari, darslik va qo'llanmalari bo'yicha maxsus ilmiy izlanishlar vujudga keldi. Biroq ularning barcha merosi to'liq o'rganildi, deb aytish hali erta — ayniqsa qo'lyozmalar, nodir nusxalar, zudlik bilan ilmiy muomalaga kiritilishi lozim bo'lgan manbalar hanuz mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadidlar. Abdurauf Fitrat [Matn]: risola./ H.Boltaboyev. –Toshkent: Yangi nashriyot uyi, 2022. 7B
2. Nusratillo Naimov “Buxoro jadidlari” Fan nashriyoti. T.: 2000.
3. Qosimov B. Maslakdoshlar. –T.: Sharq NMAK, 1994.

⁵⁵ Jadidlar. Abdurauf Fitrat [Matn]: risola./ H.Boltaboyev. –Toshkent: Yangi nashriyot uyi, 2022. 7B